

## THE PLACE OF DRAWING SCIENCE IN THE FIELD OF ARCHITECTURE AND DESIGN EDUCATION

### QALAMTASVIR FANINING ARHITEKTURA VA IZAYN TA'LIM YO'NALISHIDAGI O'RNI

Shakarboy Eliboyevich O'rinboyev

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Tasviriy san'at" kafedrası mudiri, katta o'qituvchi

Turkman Esanov

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Tasviriy san'at" kafedrası dotsenti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada arxitektura va dizayn ta'lim yo'nalishlarida umumkasbiy fanlar blogiga kiruvchi "Qalamtasvir" fanining o'qitilishidagi muammolar hamda bo'lajak arxitektor va dizaynerlar o'rganishlari lozim bo'lgan dastlabki talablar haqida fikr yuritiladi.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются проблемы преподавания предмета «Рисунок» в направлении архитектура и дизайн, входящего в блог общепрофессиональных наук и исходные требования, которые должны усвоить будущие архитекторы и дизайнеры.

### ANNOTATION

This article discusses the problems of teaching the subject "Drawing" in the direction of architecture and design, included in the blog of general professional sciences and the initial requirements that future architects and designers should learn.

**Kalit so'zlar:** arxitektura, gravyura, vizual jarayon, umumiylik, plastika, harakat, eskiz, grafika, chiziq, shtrix .

**Ключевые слова:** архитектура, гравюра, визуальный процесс, общность, пластичность, движение, эскиз, графика, линия, штрих.

**Keywords:** architecture, engraving, visual process, generality, plasticity, movement, sketch, graphics, line, stroke

**"San'atning eng yuksak jihatlari qalamtasvirda namoyon bo'ladi"** P.P. Chistyakov

Arxitektura, dizayn, manzara, zargarlik san'ati, haykaltaroshlik, gravyura, rangtasvir - bu san'atlarning barchasi bitta umumiy asosda, ya'ni qalamtasvir san'atini qat'iy o'rganishga bog'liqdir."

Ma'lumki qalamtasvir tasviriy san'atning asosi hisoblanadi, faqat shu orqali san'atda ko'tarilish va takomillashish mumkin. Shunday qilib, rasm chizish butun vizual jarayonning

asosiy bo'g'inidir. Bunda faqat ko'zning yaxshi ko'rish mutlaqo yetarli emas - tabiatni o'rganish va bilish jarayonida inson bevosita ishtirokchi hisoblanadi. Chunki, bu yerda bitta iste'dod hissi kifoya qilmaydi, ham mulohaza yuritish, ham aqlni va miyani ishlatish talab qilinadi.

“Agar musavvir biror narsani chizadigan bo'lsa, demak uning ko'rinmas qismlarini his qila olishi kerak”. Bunda uning haqiqiy shakli haqidagi bilimi shunchalik to'liq bo'lishi kerakki, uni deyarli ongli ravishda tekis yuzada hajmli ko'rinishda tasvirlay olishi zarur. Chizishni “umumiylik” dan boshlash kerak. Chunki, har qanday umumiyliksiz, hajmsiz chizilgan tasvir bu grafik chizma bo'lib qoladi. Tasvirni ifodalashda, g'oyaning asosini ochishda, fikrlar aniqligini belgilashda kichik detallar muhim o'rin egallaydi.

Yuqorida keltirilgan misollar asosida musavvir chizish qobiliyatini amalga oshirish uchun quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

**Ko'rish qobiliyati.** Qalamtasvir tasviriy san'at sohasida o'rganilayotgan dars jarayonining boshqaruvchisi hisoblanadi. Shunisi aniqki, qalamtasvir asosida haqiqiy real hayot yotadi. Badiiy san'at asarining mazmuni asosan chizilgan tasvirda ochiladi. Uning asosiy mazmuni syujetli va kompozitsion ko'rinishda hayotiy va jozibali ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvirda grafik vositalar asosida ikki o'lchamli makonda, uch o'lchamli tasvirning holati va u turgan makonning o'zi, tasvirning xarakterli joylari plastikasi, harakati, materiali chizilayotgan tekislikning fakturalari aniqlanib ko'rsatiladi. Realist rassom uchun qalamtasvir-bir vaqtning o'zida tushunish uchun u foydalanayotgan hayotni shaklli qiyofa tilida anglashga, tomoshabinga o'zining ko'rganlari orqali ta'sir qilishga xizmat qiladi.

**Kuzatuvchanlik.** Kuzatishning bir necha xili (uzoq muddatli, juda qisqa, uzuluvchan) mavjud. Rassom hayotni kuzata turib va o'rganib, uning xilma-xilligidan yangi taassurotlar oladi. U bilan o'zining dunyoqarashi, ijodiy imkoniyatlarini boyitadi. Shuning uchun haqiqiy o'rab turgan atrof-muhitga e'tiborsizlik rassom ijodiy o'sishining to'xtashiga olib keladi.

**Yaxlit ko'rish.** Rassomning yaxlit ko'rish-bu spetsifik, professional tahliliy ko'rish bo'lib, bu noyob qobiliyat narsa yoki xodisani ko'z bilan idrok etish demakdir. Ya'ni, keraklisini keraksizidan ajratib xarakterli jihatlarini farqlash orqali alohida qismlaridagi umumiy ichki bog'liqlikni aniqlashlash.

Rassomning tasavvurida barcha narsa va xodisalar to'laligicha qolmaydi, balki naturadan ijodiy obraz uchun ajratilgan, saralangan asosiy tipik va xarakterli, aynan kerakli joylari, holati, konstruksiyasi yoki estetik sifati, shaklning plastikligi, rangi, koloriti qoladi.

**Ko'rish xotirasi.** Rassomda kuzatish jarayoni quyidagicha kechadi: u ko'rgan, kechirganlarini qisqa yoki uzoq vaqt mobaynida esda saqlab qolishi asosida aks ettiradi. Eslab qolish qobiliyati ko'pchilikda mavjud. Ayniqsa, kuchli rivojlangan ko'rish xotirasi asosan eslab qolish va ko'rish qobiliyati asosida va shu orqali tasavvur eta olish rassom psixik holatining xususiyati hisoblanadi.

Ko'rish xotirasi amaliy tajribalar asosida rivojlanadi. Tez-tez takrorlanadigan “eslab qolish” mashg'uloti natijasida eslab qolish qobiliyati o'sadi.

**Qoralama (nabroska).** Borliqdagi dunyoning qisqa, ko'ptusli tasviri bo'lib, odatda qisqa, ba'zan esa juda qisqa (nihoyatda chegaralangan) vaqt oralig'ida rasm chizayotgan odamning o'ziga ham bog'liq bo'lmagan tasvirdir. Bu yo'lda ishni tezlashtirish maqsadida juda kam miqdorda grafik ashyo ishlatiladi.

Uzoq muddatli qalamtasvirni joylashtirishdan oldin doim naturaning yaxlit tasviridan foydalaniladi. Qisqacha aytganda bunda qoralama (nabroskadan) foydalaniladi. To'g'ri topilgan, yaxlit hajmdagi natura uzoq muddatli o'quv qalamtasvirining boshlanishi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Xomaki rasm (zarisovka).** Qisqa muddatli qalamtasvirga nisbatan to'liqroq, ammo ko'p tusli, tuganmas borliq, dunyoning tasviri, uzoq muddatli qalamtasvirga nisbatan qisqaroq vaqt oraliqida, naturadan chiziladi. Xomaki rasmni chizish muddati odatda mazmuniga nisbatan, kelgusida qaerga ishlatilishiga qarab, ijodkor o'ziga qo'gan talabi asosida belgilaydi.

Xomaki rasm naturadan chiziladi, xuddi qisqa muddatli qalamtasvirning davomiga o'xshaydi va har tomonlama qismlar bilan boyitilib boriladi. Naturaning katta, to'liqligi shundaki, u qisqa va uzoq muddatli qalamtasvirning oraliqidagi ko'rinishidir.

Qisqa muddatli qalamtasvirning xomaki rasmdan farqi nafaqat sarflangan vaqtga, u yoki bu narsani chizishga va ishni qanday usulda bajarishga bog'liq.

**Grafik vositalar.** Qoralama chizishdagi grafik vositalarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

-har tomonlama ishni tez bajarishda, ba'zan qiyin sharoitlarda juda murakkab vazifani bajarayotganda ;

- ular oddiy, tejamli, egiluvchan bo'lishi kerak. Shunday keng imkoniyatlarga ega bo'lgan vosita bu – **shtrix va chiziqlardir.**

**Chiziq.** Bu ibtidoiy davrda insoniyatning eng qadimgi vakillari tomonidan ixtiro qilingan bo'lib, tasviriy san'at paydo bo'lishidagi ilk ko'rinishdir. Shu bilan birga hozirgacha rasm chizishning asosiy vositasi sifatida foydalaniladi.

**Shtrix.** Shtrix chizig'i yoki shtrix qog'oz yuzasida qo'l harakati jarayonida harakatdagi qalam yoki boshqa moslama, qaysiki bo'yovchi vositalar yordamida paydo bo'ladi. Fazoviylikdagi shtrix chiziq (nabroska)da shaklning hajmli belgisini nafaqat uning konturida, balki uning ichki qismini ko'rsatishda muhim omil bo'ladi.

Qo'shimcha parallel shtrixlar-bukilgan shakl bo'ylab yo'naltirilgan shaklning kerakli joyiga urg'u beradi.

**Tus dog'lari.** Qoralama (nabroska) va xomaki rasm (zarisovka)ni bajarishda zarurat paytida tus dog'laridan foydalanish quyidagi asosiy vazifani talab qiladi.

1. Natura shaklining paydo bo'layotgan paytida yoki uni hajmli ajratib chizayotganda;
2. Unga yorug'lik berilayotganda;
3. Tus kuchini ko'rsatishda;
4. Uni o'rab turgan fazoviy chuqurlikni ko'rsatishda.

**Perspektiva.** Biror bir yuza ustidagi fazoviy ob'ektlar o'lchamlarining qisqarganday tasavvur uyg'otishi, ichki kuzatuvlar asosida chiziqlarning o'zaro munosabatlar o'zgarishida kuzatiladigan tasvirlash vositasi.

Perspektiva (lotincha perspicere, fransuzcha perspective, italyanacha prospettiva, latincha perspicere – shaffof ko'raman, aniq ko'rmoq, ko'zdan kechirish) tabiatda kuzatiladigan o'lchamlar, shakl o'zgarishi va oq-qora munosabatlarga qarab, fazoviy jismlarni sirt ustida tasvirlash usuli. Boshqacha aytganda, bu: vizual idrok bilan haqiqiy jismlarning grafik buzilishi. Masalan, ikkita parallel relslar ko'rinmas (ufqda joylashgan) nuqtada birlashganday tuyuladi. O'zining vizual tuzilishi va fazoviy joylashishini uzatish orqali hajmli jismlarni

tasvirlash usuli perspektivadir. Tasviriy san'atda tasvirning ta'sirchanligini oshiruvchi badiiy vositalardan biri sifatida har xil usullardan foydalanish mumkin.

**Kompozitsiya.** "Kompozitsiya" (lotincha compositio – qatlash, tuzish, bog'lash, qo'shish, ulash, birlashtirish) adabiyot, san'at asarlarining tarkibiy tuzilishi, joylashishi va tarkibiy qismlarning nisbati, muayyan qurilishi va birlikka ega bo'lgan ko'rinishi. Kompozitsiya-qismlardan bir butun asar yaratish hisoblanib, adabiyot va san'at asarlarining qurilishi, mazmuni, tabiati, maqsadi va uning idrokini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya-bu badiiy shaklning tarkibiy qismi bo'lib, asarning butunligi va yaxlitligini ta'minlaydi, uning elementlari bir-biriga va rassomning tuzgan rejasiga moslashtiriladi.

**Uzoq muddatli o'quv qalamtasviri.** Uzoq muddatli o'quv qalamtasviri-bu naturaga qarab davom ettirishga asoslangan va uni jiddiy o'rganadigan qalamtasvirni chizishni o'qitishning asosiy va an'anaviy shakli hisoblanadi. U ko'rinadigan narsa va hodisalarni, shaklning xarakterli joylarini va plastik xususiyatlarini to'g'ri ko'rsatishga o'rgatadi. Qolaversa, talabalarga asosiy nazariy bilim va amaliy tajriba berish bilan birga tekislikda tasvirning tuslanish jarayonini ko'rsatadi.

Uzoq muddatli o'quv qalamtasviri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kuzatuv (ko'rgazmali) perspektiva asoslari;
- ayrim fizik xodisalar (yorug'lik tarqatish qonunlari, optika va boshqalar);
- rang munosabatlari tushunchasi (ton);
- odam va hayvonlar plastik anatomiyasi asoslari.

Qalamtasvirda ishlash jarayoni uzviy ketma-ketlik asosida (joylashtirish, shaklni tuzish va qurish, shaklni ifodali ko'rsata bilish va uni umumlashtirish) umumiylikdan xususiylikka, ya'ni boyitilgan holat ko'nikmasiga ega bo'ladi. Qolaversa chizishning texnik usullari bo'lgan oddiylikdan murakkablikka, qaysiki, umumiy atama bilan bog'liq "qo'lni joyiga qo'yish (qalamni qanday ushlab)", qanday shtrix va chiziq o'tkazish, qanday tus berish va xokazolarni o'rgatadi. **Grafik ashyolar va ulardan foydalanish.** Grafik ashyolar "ashyolar" deb qabul qilingan. Ular qalam, oddiy va zichlangan ko'mir, sangina, suv bo'yoq, tush, sous, turli sifatdagi qog'ozlar, karton va kalkalardir.

**Natura.** Rassomlar rasm chizish uchun asos bo'lgan har bir ob'ektni - odam va barcha jonivorlarni, uy-ro'zg'or va texnika buyumlarini, me'morchilik binolari va qurilish inshootlarini, tabiat va borliqning boshqa elementlarini natura deb ataydilar. Ularni jonsiz va jonli naturalarga bo'lish mumkin, ya'ni tabiiy narsalar yoki sun'iy yaratilgan buyumlar, qurilmalar binolar jonsiz, odamlar va jonzorlar jonli naturalarga misol bo'ladi

**Plastika va uning arxitekturada namoyon bo'lishi**

**Plastika.** Xususan haykaltaroshlik san'atiga xos bo'lgan estetik tushuncha bo'lib, loy, plastilin, gips va shunga o'xshash yumshoq xomashyolardan shakl yasash degan ma'noni anglatadi. San'at plastikasi tabiat plastikasidan andoza oladi. U tabiatdagi xodisalarni aks ettirgan holda tabiiy shakllarning silueti, tuzilishi va chiziqlarda, ranglar munosabatida, nur va soya o'yinida yoki sayragan qushning ohangi usullarida namoyon bo'ladi.

Me'morchilik san'atidagi plastika ham tabiatdagi singari qarama-qarshi kuchlar o'zaro ta'sirining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu qarama-qarshilikni yerning tortishish kuchi (gravitatsiya) bilan me'morchilik konstruksiyalarining ana shu kuchni yengib o'tishiga

qaratilgan qarshiligi o'rtasida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni binoning yuqori qismidagi og'irlik uning quyi qismiga "plastik" shaklda yo'naltirilgan bo'ladi. Gumbazlar O'rta asr me'morchiligidagi plastikaning eng mukammal shakli sifatida keng qo'llanilgan me'moriy qismlardan biri. Arxitekturaviy muhit plastikasining ahamiyati shundaki, u ana shu muhitni faqat ko'rish orqali emas, balki insonning dinamik hatti – harakati orqali ham idrok etishni taqozo qiladi.

Qisqacha qilib aytganda, yuqorida keltirilgan manbalar ta'lim sifatini oshirishda o'zining munosib hissasini qo'shishi muqarrar. Hozirgi texnika taraqqiyoti davrida, axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim tizimida amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida qalamtasvirning dolzarbligini nazardan chetda qoldirmaslik zarur deb hisoblaymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent "O'zbekiston" NMIU. 2017 y. 179 bet.
2. Mirdavidova S.M. "Qalamtasvir va rangtasvir asoslari" O'quv qo'llanma, Toshkent, TAQI-2017 y. 111-113 betlar
3. B. Boymetov "Qalamtasvir", Darslik, Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi-2006 y. 19-37 betlar
4. Soibov T.Z., Gilmanova N.V., Slugin A.P., Borodina M.R., Tè A.V. "Chizmatasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik" Darslik.- TAQI. 2010 y.
5. Молева Н., Белютин Э., "П.Л. Чистяков-теоретик и педагог", "Академия художеств", Москва-1953 г.
6. Барщ А.О., "Наброски и зарисовки", "Искусство", Москва-1970 г.
7. Менделеев Д. И., Пресс А. А. Мозаика // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
8. Власов В. Г.. Новый энциклопедический словарь изобразительного искусства. В 10 т. — СПб.: Азбука-Классика. — Т. V, 2006. — С. 585—589; Т. IV, 2006. — С. 120—121; Т. IV, 2006. — С. 124—125
9. Нецветаев Л. Архитектурный пейзаж в графических материалах (карандаш, уголь, фломастер, тушь, перо, акварель). — М.: БуксМАрт, 2017.
10. O'rinboev Shakarboy Eliboevich, Nazarova Dilshoda Mustafaevna. Россия. Образование и наука в XXI веке. Xorij tajribalari asosida O'rta Osiyo madaniy meros ob'ektlarini qayta tiklash va ta'mirlash omillari 2022 yil fevral 23-son 1359-1363 betlar <https://disk.yandex.ru/i/8QzbAwH0t5nIg>
11. Urinboev, S., & Barnayeva, S. (2023). Principles of Development of Fine Arts in Central Asia. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(4), 45-48.
12. Уринбоев Шакарбой Элибоевич, Назарова Дильшоода Мустафаевна. (2023). ЭРОН, АФФОНИСТОН ВА ХИНДИСТОНДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ АРХИТЕКТУРАСИ. Международный журнал по образованию, социальным и гуманитарным наукам. Издательство академических исследований Финляндии, 11(4), 482–487. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7812410>

13. Шахло Барнаева | Шакарбой Уринбаев «Творческая триада в художественной жизни Самарканда 30-х годов XX века» Опубликовано в Международном журнале тенденций научных исследований и разработок (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Спецвыпуск | Инновационное развитие академических исследований и разработок во время Covid 19, май 2021 г., стр. 9-10, URL: <https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd43707.pdf>
14. Sultanov, A. (2021, November). THE ROLE OF EDUCATIONAL EVENTS IN THE COOPERATION OF FAMILY, SCHOOL, COMMUNITY IN PROTECTING DISADVANTAGED STUDENTS FROM ALIEN IDEOLOGIES. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 21-25).
15. Uktam, G. (2023). Shaping the Architectural Environment of Public Dining Buildings. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 2(3), 13-17.
16. Hamidovich, Y. T. L. (2023). HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 723-727.
17. Turkman, E. (2011). Haykaltaroshlik.«Arxitektura» va «Dizayn» ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Samarqand: SamDAQI, 2.